O‘ZBEKISTONDA SANOAT TARMOQLARINING HUDUDIY JOYLASHUVI MAVZUSINI O‘QITISHDA KREATIV, MUAMMOLI VA INTERFAOL TA’LIM METODLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Mustafayeva Zarina Tohir qizi–
Shahrisabz davlat pedagogika instituti magistranti
Tursunova Gulsanam Alimardon qizi–
Shahrisabz davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kursidagi “O‘zbekistonda sanoat tarmoqlarining hududiy joylashuvi” mavzusini o‘qitishda kreativ, muammoli va interfaol ta’lim metodlaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari yoritilgan. Sanoat tarmoqlarining hududiy joylashuvi, ishlab chiqarish korxonalariga ta’sir etuvchi tabiiy va iqtisodiy-geografik omillarni o‘rganishda zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanish yo‘llari ko‘rsatib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, sanoat geografiyasi, hududiy joylashuv, sanoat tarmoqlari, kreativ ta’lim, muammoli ta’lim, interfaol metodlar, geografik tafakkur, iqtisodiy-geografik omillar, kartografik savodxonlik.*

Bugungi kunda ta’lim tizimida o‘quvchilarning nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan bir qatorda, ularning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, muammoli vaziyatlarga yechim topish va amaliy faoliyatda bilimlarini qo‘llash kompetensiyalarini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar hamda interfaol ta’lim metodlaridan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kursidagi “O‘zbekistonda sanoat tarmoqlarining hududiy joylashuvi” mavzusi mazmun jihatidan o‘quvchilarda

mamlakat sanoatining tarmoq tarkibi, ishlab chiqarish markazlari, hududiy ixtisoslashuv hamda sanoat korxonalarining joylashuviga ta’sir etuvchi omillar haqida yaxlit tasavvur hosil qiladi. Mazkur mavzuni o‘rganishda sanoat markazlari va korxonalarning nomlarini yodlash bilan cheklanib qolmasdan, ularning aynan shu hududlarda shakllanish sabablarini iqtisodiy-geografik jihatdan izohlash muhimdir.

Shu nuqtayi nazardan, mavzuni o‘qitishda kreativ, muammoli va interfaol metodlarni uyg‘unlashtirish o‘quvchilarning geografik bilimlarini chuqurlashtirish, iqtisodiy-geografik tafakkurini rivojlantirish va hududiy jarayonlarni mustaqil tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

O‘zbekiston sanoatining hududiy joylashuvi ko‘plab tabiiy va iqtisodiy-geografik omillar bilan belgilanadi. Jumladan, mineral xomashyo manbalari, yoqilg‘i-energetika resurslari, suv ta’minoti, mehnat resurslari, transport infratuzilmasi, iste’mol bozori va ishlab chiqarish kooperatsiyasi sanoat korxonalarining joylashuviga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu omillarni o‘quvchilarga tushuntirishda an’anaviy bayon usuli bilan bir qatorda, ularni mustaqil izlanishga undaydigan ta’lim metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Kreativ ta’lim metodlaridan foydalanish. Kreativ ta’lim metodlari o‘quvchilarning yangicha fikrlashi, mavjud geografik ma’lumotlarni qayta ishlashi va muayyan hududning sanoat salohiyatiga doir mustaqil takliflar ishlab chiqishiga xizmat qiladi. “O‘zbekistonda sanoat tarmoqlarining hududiy joylashuvi” mavzusida, avvalo, “Aqliy hujum” metodidan foydalanish mumkin.

Bunda o‘quvchilarga “Nima sababdan O‘zbekistonda sanoat korxonalari hududlar bo‘yicha bir xil taqsimlanmagan?” degan savol beriladi. O‘quvchilar savol yuzasidan o‘z fikrlarini bildiradilar va sanoat korxonalarining joylashuviga ta’sir etuvchi omillarni aniqlaydilar. Ular xomashyo bazasi, energetika resurslari, mehnat resurslari, transport yo‘llari, suv ta’minoti va iste’mol bozori kabi omillarni

ajratib ko‘rsatadilar. Keyinchalik ushbu omillar alohida sanoat tarmoqlari bilan bog‘lab tahlil qilinadi.

Shuningdek, “Sanoat korxonasini joylashtir” nomli ijodiy topshiriqdan foydalanish ham samarali hisoblanadi. Bunda o‘quvchilar kichik guruhlarga ajratilib, har bir guruhga muayyan sanoat korxonasini joylashtirish uchun eng maqbul hududni tanlash vazifasi beriladi. Masalan, birinchi guruh misni qayta ishlash, ikkinchi guruh avtomobilsozlik, uchinchi guruh to‘qimachilik, to‘rtinchi guruh esa oziq-ovqat sanoati korxonasi uchun hudud tanlaydi.

Guruhlar tanlangan hududni xomashyo manbalari, mehnat resurslari, transport imkoniyatlari, energetika ta’minoti va iste’mol bozoriga yaqinligi asosida izohlaydilar. Jumladan, Olmaliqning rangli metallurgiya, Asakaning avtomobilsozlik, Farg‘ona vodiysining esa to‘qimachilik sanoatidagi o‘rnini tahlil qilish orqali o‘quvchilar sanoat korxonalarining hududiy joylashuv qonuniyatlarini anglaydilar.

Mavzuni o‘zlashtirishda “Sanoat xaritasini yaratish” metodidan ham foydalanish mumkin. Bunda o‘quvchilar O‘zbekistonning kontur xaritasida yirik sanoat markazlarini va ularda rivojlangan ishlab chiqarish tarmoqlarini shartli belgilar yordamida tasvirlaydilar. Masalan, Olmaliq, Navoiy, Bekobod, Asaka, Farg‘ona, Chirchiq, Angren va Qarshi kabi sanoat markazlari xaritada belgilanadi. Keyingi bosqichda o‘quvchilar ushbu markazlarning geografik o‘rni va ixtisoslashuv xususiyatlarini izohlaydilar.

Mazkur metodlar o‘quvchilarning ijodiy fikrlashi, geografik xaritalar bilan ishlash va sanoat tarmoqlarining joylashuvini iqtisodiy-geografik jihatdan asoslash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Muammoli ta’lim metodlaridan foydalanish:

Muammoli ta’lim o‘quvchilarning muayyan geografik hodisa yoki jarayonning sabablarini mustaqil aniqlashi, mavjud ma’lumotlarni tahlil qilishi va asoslangan xulosalar chiqarishiga yo‘naltiriladi. Sanoat tarmoqlarining hududiy

joylashuvi mavzusida muammoli savollarni qo‘llash orqali o‘quvchilarda tahliliy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish mumkin.

Masalan, dars jarayonida

- “Nima sababdan rangli metallurgiya korxonalari Olmaliq va Navoiy kabi hududlarda rivojlangan?”,
- “Nima uchun avtomobilsozlik sanoati Asaka shahrida shakllangan?”,
- “Nima sababdan to‘qimachilik korxonalari paxtachilik va mehnat resurslari mavjud hududlarda rivojlanadi?” kabi savollar o‘rtaga tashlanadi.

O‘quvchilar ushbu savollarga javob topish jarayonida sanoat korxonalarining xomashyo manbalari, ishlab chiqarish kooperatsiyasi, transport-geografik o‘rni, mehnat resurslari va iste’mol bozori bilan aloqalarini o‘rganadilar. Natijada sanoat tarmoqlarining hududiy joylashuvi alohida omillar emas, balki bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan omillar ta’sirida shakllanishini tushunib boradilar.


Muammoli ta’limni tashkil etishda “Muammoni aniqlash – sababini topish – yechim taklif qilish” usulidan ham foydalanish mumkin. Masalan, yirik sanoat markazlarida ishlab chiqarish hajmining ortishi natijasida atmosfera havosining ifloslanishi muammosi yuzaga kelgan vaziyat sifatida taqdim etiladi. O‘quvchilar dastlab muammoni aniqlaydilar, keyin uning kelib chiqish sabablarini o‘rganadilar va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish, chiqindilarni qayta ishlash, tozalash inshootlarini modernizatsiya qilish kabi yechimlarni taklif etadilar.

Bunday yondashuv sanoat rivojlanishini faqat iqtisodiy samaradorlik nuqtayi nazaridan emas, balki ekologik va ijtimoiy oqibatlari bilan birgalikda baholash imkonini beradi.

Interfaol ta’lim metodlaridan foydalanish:

Interfaol metodlar o‘quvchilarning dars jarayonidagi faol ishtirokini ta’minlash, guruhda ishlash, o‘zaro fikr almashish va umumiy xulosaga kelish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mavzuni o‘qitishda **“Venn diagrammasi”** metodidan foydalanib, Olmaliq va Asaka sanoat markazlarini o‘zaro taqqoslash mumkin.




Ushbu topshiriq orqali o‘quvchilar sanoat markazlarining ixtisoslashuvi va rivojlanish xususiyatlarini taqqoslashni o‘rganadilar.

“Baliq skeleti” metodi yordamida esa sanoat korxonalarining hududlar bo‘yicha notekis joylashuvi muammosi tahlil qilinadi. Uning asosiy sabablariga mineral xomashyo manbalarining hududiy taqsimlanishi, mehnat resurslari, transport infratuzilmasi, suv va energiya bilan ta’minlanganlik hamda iste’mol bozorining joylashuvi kiritiladi. Ushbu sabablarning natijasida ayrim hududlarda yirik sanoat markazlari shakllanishi, hududiy ixtisoslashuv kuchayishi va iqtisodiy rivojlanish tafovutlari yuzaga kelishi izohlanadi.

“Geografik debat” metodi ham mavzuni chuqur o‘zlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Bunda o‘quvchilarga “Sanoat korxonalarini yirik shaharlarga yaqin joylashtirish maqsadga muvofiqmi yoki xomashyo manbalari yaqinidami?” degan muammoli mavzu taklif etiladi. Bir guruh yirik shaharlarga yaqin joylashtirishning afzalliklarini, ikkinchi guruh esa xomashyo manbalari yaqinida joylashtirishning iqtisodiy samaradorligini asoslaydi. Munozara yakunida sanoat korxonalarini joylashtirishda yagona omil emas, balki muayyan tarmoqning xususiyatlariga mos bir nechta omil hisobga olinishi zarurligi haqida xulosa chiqariladi.

Shuningdek, **“Klaster”** metodidan foydalanish orqali O‘zbekiston sanoatining tarmoq tarkibini o‘rganish mumkin. Bunda markaziy tushuncha sifatida “O‘zbekiston sanoati” olinib, undan yoqilg‘i-energetika, metallurgiya, kimyo, mashinasozlik, yengil sanoat, oziq-ovqat va qurilish materiallari sanoati kabi yo‘nalishlar ajratiladi. Masalan, yoqilg‘i-energetika tarmog‘ining o‘zini ham **“Klaster”** metodi sifatida olishimiz mumkun.



Har bir tarmoq bo‘yicha o‘quvchilar uning asosiy markazlari, xomashyo manbalari va joylashuv omillarini aniqlaydilar.

Mavzu bo‘yicha o‘quvchilar bilimini baholashda faqat nazariy ma’lumotlarni eslab qolish darajasiga emas, balki ularning geografik xarita bilan ishlashi, sanoat tarmoqlarini tasniflashi, hududiy joylashuv omillarini izohlashi va muammoli vaziyatlarga yechim taklif qilishiga ham e’tibor qaratish lozim.

Baholash mezoni	Ball
Sanoat tarmoqlarini to‘g‘ri tasniflay olishi	2
Sanoat markazlarini xaritada ko‘rsata olishi	2
Hududiy joylashuv omillarini izohlashi	2
Muammoli savollarga dalillar asosida javob berishi	2
Mustaqil xulosa va takliflar ishlab chiqishi	2
Jami	**10**

Ushbu baholash mezonlari o‘quvchilarning nazariy bilimlari bilan birga amaliy va tahliliy ko‘nikmalarini ham aniqlashga imkon beradi.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kursidagi “O‘zbekistonda sanoat tarmoqlarining hududiy joylashuvi” mavzusini o‘qitishda kreativ, muammoli va interfaol ta’lim metodlaridan foydalanish o‘quvchilarning geografik bilimlarini chuqurlashtirish, mustaqil va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish hamda hududiy jarayonlarni tahlil qilish kompetensiyalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kreativ metodlar o‘quvchilarning yangicha yondashuv va takliflar ishlab chiqish qobiliyatini, muammoli ta’lim sanoat tarmoqlarining joylashuv sabablarini aniqlash va iqtisodiy-geografik jarayonlarni tahlil qilish ko‘nikmalarini, interfaol metodlar esa hamkorlikda ishlash, o‘z fikrini asoslash va jamoaviy qaror qabul qilish malakalarini rivojlantiradi.

Shu bois mazkur metodlarni geografik xaritalar, statistik ma’lumotlar, diagrammalar va amaliy topshiriqlar bilan uyg‘unlashtirib qo‘llash darsning mazmunini boyitadi. Eng muhimi, o‘quvchi sanoat markazlarining nomlarini yodlash bilan cheklanmay, ularning hududiy joylashuv sabablarini tushuntira oladigan, turli hududlarning sanoat salohiyatini taqqoslaydigan va ishlab chiqarishni joylashtirish bo‘yicha mustaqil xulosa chiqara oladigan darajaga yetadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent.

2. Ishmuhamedov R.J., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent.2010

3. Tolipov O‘.Q, Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent.

4. O‘zbekiston Respublikasi umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun Geografiya fanidan davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlari.

5. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya darsliklari.

6. Abduvohidov S, G’aniyev Z. Geografiya ta’limi metodikasi. O‘quv

qo‘llanma. SamDU nashriyoti, Samarqand.: 2021.– 330 b.

7. Vaxobov X. Alimqulov N.R., Sultanova N.B. Darslik. Toshkent: Nodirabegim, 2021. -360 b.

8. Avezov M.M. Tabiiyot va geografiya o’qitish metodikasi. – T.: “Vnesh Invest Prom”, 2020

9. Таможняя Е.А., Смирнова М.С., Душина И.В. Методика обучения географии. Учебник и практикум. – М.: «Юрайт», 2023.

10. Қурбонниёзов Р. География ўқитиш методикаси. -Урганч, 2001.

11. Vahobov H. va boshqalar. Geografiya o‘qitish metodikasi. –T.: 2020.

12. Баҳромов Қ. География ўқитиш методикаси. -Бухоро, 2007.

13. https://elib.bsu.by/bitstream/123456789/37966/1